

HUDUDLARNING BARQAROR IQTISODIY O‘SISHIDA NOQISHLOQ XO‘JALIK FAOLIYATLARINING AHAMIYATI VA UNDA QISHLOQ TURIZMINING O‘RNI

Usmonov Sardor

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

Email: usmonovsardor571@gmail.com

Toshtemirova Iroda Ziyodullo qizi

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

Email: Toshtemirovairoda527@gmail.com

***Annotatsiya.** Mamlakatimizning turli mintaqalari o‘zlarining iqtisodiy xususiyatidan va moddiy ma‘naviy resurslaridan kelib chiqib turli ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasi uchun qulay bo‘lgan hududlarga ixtisoslashuvi mazkur sohalarda rivojlanish imkoniyatlariga keng qulayliklar taqdim etadi. Respublikamizning qishloq hududlari ham ayni xususiyatlarga ko‘ra bir biridan farq qiladi. Bunday imkoniyatlardan unumli foydalanish zamonaviy iqtisodiyotning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Mazkur maqola qishloq hududlarida mavjud bo‘lgan yoki tavsiya etiladigan noqishloq xo‘jaligi faoliyatlarining ayrim turlarini hamda ularga mavjud imkoniyatlarni o‘rganish asosida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijasida bildirilgan amaliy hamda nazariy xulosa va takliflarni mamlakatimizda ushbu sohada olib borayotgan yo‘nalishlar bilan birgalikda nazariy ishlarni o‘rganish natijasida shakllantirildi.*

***Kalit so‘zlar:** valyuta oqimi, noqishloq xo‘jalik faoliyatlari, iqtisodiy tarmoq, qishloq turizmi, aholi bandligi.*

Kirish. Qishloq hududlari har bir mamalakatning o'ziga xos tabiiy ishlab chiqarish hamda hayot kechirish maskani bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizning oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi xo'jalik subyektlari qishloq hududlarining asosiy daromad manbayi bo'lib kelmoqda. Shahar hamda unga tutash hududlarda ishlab chiqarish korxonalarini qishloq hududlarga nisbatan ko'proq joylashgan. Buning sababi shahar maqomi bilan bog'liq bo'lsa, qishloq hududlarida yetishtiriladigan mahsulotlar ham ayni maskanlarda qayta ishlanib iste'molga tayyor holga keltirilib yoki ichki bozorga taqdim etiladi yoki boshqa mamalakatlarga sotish maqsadida chiqariladi. Bu bilan esa hududlarda bandlik bilan bog'liq bo'lgan masalalarga yechim topilmoqda. Ammo mamlakatimiz aholisi yiliga o'rtacha 2 foiz miqdorda ko'payib, shu bilan birgalikda, inson uchun kerak bo'ladigan hayotiy manbalarni ham oshirib borish zamonaviy dunyo iqtisodining asosiy mavzusi bo'lib qoladi.

Umuman olganda, har bir mintaqqa qaysidir faoliyat bilan shug'ullanish uchun qisman bo'lsada resurslarga ega. Ularning mavjud yoki yo'qligi birlamchi omil deya e'tirof etiladigan bo'lsa, ulardan foydalanish darajasi esa ikkilamchi sifatida o'rganiladi. Biron hududning mavjud resurslari mazkur mintaqada o'ziga xos ahamiyat kasb etganligi bilan ikkilamchi ma'noda undan foydalanish darajasi past yoki foydalanilmasa, birlamchi omil ham o'z ahamiyatini yo'qotib borishi mumkin. Bugungi kunda zamonaviy ishlab chiqarish hamda xizmat ko'ratishga oid bo'lgan yangi turdagi ish va xizmatlarning yaratilishi va joriy etilishi yuqorida keltirib o'tilgan ish bilan bandlik va daromad manbayi tushunchalarini mutlaqo oqlaydi. O'zbekiston Respublikasi o'zining joylashuv o'ri hamda geografik xususiyatlari jihatidan o'ziga xos mintaqada joylashgan. Mazkur mintaqqa o'z ichiga turli xildagi imkoniyatlarni oladi hamda turli xilda namoyon bo'lish sifatiga egadir. Bugungi kunda qishloq hududlarinig aholisi Respublika aholisi ulushida 49 foizni egallaydi, mana shu birgina omil ham hududlar nuqtayi nazaridan qishloq hududlarida yashovchi aholi farovonligi hamda daromad manbayining davomiyligini ta'minlash yuzasidan zarur ish va dastur loyihalarni qo'llashni talab etmoqda. Shahar hamda

qishloq hududlaridagi migrant aholining tarkibi o'rganilganda ikkinchi toifaning ko'proq migrantlikka moyilligi mavjudligi aniq bo'ldi. Buning sabablari esa asosan quyidagicha izohlanadi.

Qishloq hududlari bugungi kunda ish o'rni jihatidan qondirilmagan;

Yuqorida aytilganidek, ishlab chiqarish korxonalarining shahar va unga tutash hududlarga yaqin joylashuvi bunday imkoniyatni pasaytiradi. Sababi, korxonalarining asosiy iste'moli hamda eksporti shahar bilan bevosita bog'liq. Qishloq hududlariga bunday imkoniyat beriladigan bo'lsa unga yondosh boshqa muammolar kelib chiqishi mumkin. Birinchi navbatda yo'l, saqlash, yetkazish kabi infratuzilmalar mahsulotning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur muammolar esa mahalliy byudjetlarning imkoniyatini oshirishni talab etadi, ammo shuni ta'kidlash kerakki, hududning rivojlanishi uning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi hamda foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ya'ni foydalanuvchilar tomonidan tushumlarning oshirilishi kuzatiladi. Hozirda bu muammoning yechimi topilmayotganligi esa qishloq hududlarida yetishtiriladigan mahsulotlarning miqdori ozligi va uning ham ichki iste'moldan oshirish masalasidir. Ichki iste'molda esa narxlar biroz past darajada va undan olinadigan daromadning ham pasayishiga olib kelmoqda. Mahsulotlar miqdorini oshirishga esa ba'zi tabiiy to'siqlar xalaqit qiladi. Masalan, global muammoga aylanib boryotgan suv masalasi fikrimizning ayni isbotidir. Shu qatorda, kadrlar jihatdan ham qishloq hududlari qondirilmagan hisoblanadi. Biron sohada yangilik yoki iqtisodiy o'sishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun, albatta, mutaxasis kadrlar jalb etiladi. Birgina asosiy faoliyat yo'nalishi bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda ham tuproqning xususiyatlari hamda turli kasalliklarga qarshi kurashishda ushbu borada bilimga ega bo'lgan mutaxasis kerak bo'ladi. Bunday muammolarga duch kelgan fermer xo'jaliklari esa o'z vaqtida ko'ra olmagan choralari sababli ko'pgina hollarda zararga ishlashiga olib keladi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, qishloq hududlarining investitsion jozibadorligi mazkur hududlarda yansi sanoat korxonalarining keng tarqalishiga to'sqinlik qiladi. Valyuta oqimi shahar hududlari bilan qamrab olingan bir paytda yetishtiriladigan

yoki tayyorlanadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining asosiy qismini beruvchi qishloq hududlari bunday iqtisodiy zanjirdan chetda qolmoqda.

Material va metodlar. Yuqorida sanab o‘tilgan omillarning muqobil yechimlari bilan ishlash zamonaviy iqtisodning bosh mavzusi bo‘lmasada, bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy hayotining zarurati bo‘lib qolmoqda. Qishloq hududlari resurslar salohiyati jihatidan boshqalaridan ajralib turishi, ma‘lum. Ayni omil bizga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan qator sohalarda imkoniyat va yuqori foyda olish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Yangi mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqarish xalqaro hamda ichki bozorda turlarning ko‘payishi hamda ish o‘rinlarining muvozanatlashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda turli xil an‘anaviy ishlab chiqarish usullari qishloq hududlarida saqlanib qolgan bo‘lib, ularga misol qilib hunarmandchilikning turlarini hamda shu bilan yaqin bo‘lgan boshqa qo‘l mehnatini talab etuvchi sohalar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bunda esa, asosan, mahsulotlar sotish uchun mo‘ljallanadi, ammo, buni reklama qilib ham yoki ko‘rgazma qilib ham daromad topish mumkin. Bu ham, albatta, noqishloq xo‘jaligi faoliyati bo‘lib hisoblanadi.

Qishloq hududlarida mavjud sohalardan tashqari ham, deylik shahar iqtisodiy zonalariga mansub ishlab chiqarishni qishloq hududlarida qismini tashkil etishi mumkin. Birgina misol qilib shuni aytish mumkinki, o‘rganilgan hisob kitob natijalariga ko‘ra, o‘rtacha daromad topish ko‘rsatkichi shahar hududlarida yuqori bo‘lsa, qishloq hududlarida aksincha natijani beradi. Ammo ushbu o‘rinda tushunish kerak bo‘lgan tushuncha, aslida bu emas, balki, bu farq o‘rtacha sarf-xarajatlarda namoyon bo‘ladi. Bu omilni iqtisodiy jihatdan baholaganda esa, ishchi kuchiga va mehnatga haq to‘lashda ham bir muncha pastki narxlar taklif qilinishi mumkin. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi bilan bir qatorda, mahsulot yoki xizmatning shahar bozorlariga kirish narxlari bo‘yicha raqobatbardoshligini ta‘minlaydi.

O‘rganishlar natijasida aniq bo‘lib boradiki, qishloq hududlarining geografik joylashuvi hamda iqlim xususiyatlari, shuningdek, etnik-tarixiy kelib chiqishi bu

hududlarda qishloq xo‘jaligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan yana bir tarmoqning yo‘lga qo‘yilishi va rivojlanib borishi uchun tabiiy omil bo‘lib hisoblanadi. Bu faoliyat yo‘nalishi qishloq turizmidir. Shunday alohida sohalardan biri bo‘lib qishloq turizmi hisoblanadi. Turizmning ushbu faoliyat sohasi ham keng tushuncha bo‘lib, unda, asosan, ko‘plab mamlakatlarda mavjud bo‘lgan tabiiy resurs zaxiralardan faol foydalangan holda, turli dasturlar amalga oshiriladi. Qishloq turizmi – tashrif buyuruvchilarning qishloq hududlarida dam olishi, aholi turmush tarzi bilan tanishishi, boy madaniyat ko‘rinishlari hamda qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq sohalarning ishtirokchisi bo‘lishga imkon berishi bilan birgalikda, sof, tabiiy mahsulotlardan ham iste‘mol qilishni taqdim eta oladigan sayohat hisoblanadi. Dunyo mamlakatlarida rivojlangan shaharlashuv jarayoni kuzatilyotgan bir sharoitda insonlarning qishloq hududlarida dam olib, hordiq chiqarishiga bo‘lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda. Qishloq turizmi ham qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi uchun samarali yo‘l hisoblanadi.

Bundan tashqari qishloq turizmi quyidagilarda ahamiyatli hisoblanadi:

- sayyohlarga mahalliy aholining milliy an‘analarga hurmatni rag‘batlantirish;
- aholining madaniy-ma‘rifiy darajasini oshirish;
- mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish;
- ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- tabiiy resurslarni saqlash;
- turizm xizmati bilan bog‘liq yangi kasblarni o‘zlashtirish;
- yirik sayyohlik markazlariga yukni kamaytirish imkonini beradi.

Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta‘lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mehnat bozori talablariga asosan, professional kadrlarni qayta tayyorlash yuzasidan qisqa muddatli trening va o‘quv

kurslarini o'tkazish bo'yicha nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini rag'batlantirish, nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash tartibini soddalashtirish, davlat akkreditatsiyasiga ega bo'lgan nodavlat ta'lim muassasalari uchun davlat namunasidagi hujjatlarni berish bo'yicha mavjud cheklovlarni bartaraf etish nazarda tutilgan. Buning natijasida aholi tomorqasidan foydalanish samaradorligi oshadi, ishlab chiqariladigan sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi ko'payadi.

Harakatlar strategiyasida olis va tog'li hududlarda turizm va ekoturizmni tashkil etish, dorivor o'simliklarni etishtirish, yig'ish va qadoqlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqish kuzda tutilgan. Bunda, tog' oldi hududlaridagi qishloqlarda 10-15 ta xonadonlarda sayyoxlarga xizmat ko'rsatish uylari tashkil etilib, ya'ni uyning bitta yoki ikkita xonasi devorlari so'zana, adras bilan bezatilib, ko'rpacha to'shalib, xontaxta qo'yilib, hojatxona va oshxonaning sanitar holatlari tartibga keltirilib, chet ellik sayyoxdarga tabiiy manzaralarni ko'rsatish bilan birga non yopish, milliy taomlarni tayyorlash, milliy urf-odatlar bilan tanishtirish kabi xizmatlar ko'rsatilishi rejalashtirilgan.

Xulosa. Respublikamizda agroturizm va qishloq turizmini tashkil etish orqali qishloqda yangi ishchi o'rinlari yaratiladi; ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga harakat qilinadi; qishloqqa pul mablag'lari, shu bilan birga xorijiy valyuta oqib kirishi ortadi; qishloqning farovonligi oshadi; qishloqda zamonaviy ijtimoiy maishiy infrastruktura yaxshilanadi va yangilari yaratiladi; yangi servis xizmat bilan bog'liq bo'lgan kasblar hosil bo'ladi; hunarmandchilik rivojlanadi. Agroturizm va qishloq turizmining mavsumiy xarakterga ega ekanligi, yaratilayotgan turxizmatlar va agroturmahsulotlarning import mahsulotlar bilan raqobatlasha olish qobiliyati, yuqori malakali kadrlar yetishmasligi, hududlardagi madaniy muhitga zarar yetkazilishi mumkinligi uning bir maromda o'sishiga va rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu bois, mamlakatimizda agroturizm va qishloq turizmini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur: Birinchidan, agroturistik xizmatlarga bo'lgan talabni o'rganish va turistlar qanday dam olish joylarini afzal ko'radi. Masalan, xorijiy tadqiqotchilarning natijasiga ko'ra, agroturizm va qishloq

turizmining ekoturizm va etnoturizm ko‘rinishi bilan qiziqishgan. Agroturistik xizmatlarni sotib oluvchilarni o‘rganish va agroturistik xizmatlarga qanday narx belgilash zarurligi. Bozorni o‘rganish agroturistik mahsulotlar harakatini aniqlash. Ikkinchidan, agroturizm va qishloq turizmi bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan oilaviy tadbirkorlar va fermer xo‘jaliklarining zarur bo‘lgan moddiy-texnik bazasi o‘rganiladi. Qishloqning infratuzilmasi o‘rganiladi va kamchiliklar bartaraf etiladi. Bundan tashqari mehnatga layoqatli aholining bandligini ta‘minlash, ish o‘rinlarini yaratish, boy urf-odat va an‘analarni saqlab qolish, o‘ziga xos yashash tarzini qo‘llab-quvvatlash, qishloq hududlarining ijtimoiy-maishiy infratuzilmasini yaxshilash, sifatli xizmatlarni to‘g‘ri tashkil etish, daromadlarni muqobillashtirish uchun ham muqobil yechim hisoblanadi. Shuningdek, qishloq turizmi yangi xizmat turlarini yaratishda hamda insonlarning ma‘naviy dunyoqarashini shakllantirishda, ularda ekologik hamda turistik madaniyat kabi g‘oyalarni targ‘ib etishda samarali yo‘l hisoblanadi. Bu jihatlarda barqaror rivojlanishga erishish uchun ham xalqaro tajribalardan unumli foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.04.2022-yilda “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. www.lex.uz
3. Amriddinova R., Islomov S. Qishloq turizmi hamda agroturizm va qishloq turizmini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati. Builders of The Future. 5-9 p. <https://doi.org/10.37547/builders-v2-i2-2>
4. Tojiyeva Z.N., Ibragimov L.Z., Sabirova M.Sh. Territorial characteristics of social and environmental problems in the location of the population of Uzbekistan.

Актуальные проблемы экологии и природопользования. Международной научно-практической конференции. Москва, 2021. 127-135 p.

5. Usmanov M., Lutfullo Ibragimov L., & Baratova G. (2021). Hududlarda turizmi innovatsion rivojlantirishda klasterlarning ahamiyati. *Science and Education*, 2(10), 696–706. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1953>

6. Ibragimov, L. Z., Ubaydullayev, D. K. U., & Musayev, B. M. (2021). Opportunities And Prospects For Tourism Development In Jizzakh Region. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 3(02), 33–37. <https://doi.org/10.37547/tajir/Volume03Issue02-07>

7. Khamid Khudaybergenovich ABDURAMANOV & Lutfullo Ziyadullaevich IBRAGIMOV, 2015. “Regional Characteristics Of Demographic Development In The Republic Of Uzbekistan”, SEA - Practical Application of Science, Romanian Foundation for Business Intelligence, Editorial Department, issue 7, pages 363-368, April.

8. Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. — Samarqand, «SamDU», 2020. 52-53-betlar

9. Conferences, J. &. (2023, March 1). Importance of Rural Tourism Development in Uzbekistan. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/64ZYD>

10. Usmonov S. O ‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishning ahamiyati //international conferences. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 832-837.

11. Lutfullo I., Sardor U. International journal on economics, finance and sustainable development. – 2023.

12. Usmonov S. O ‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. SamTSAU Conference 1. – C. 305-311.